

SHERIY SATRLARIM

Meliboyeva Osiyo

*Qo'qon davlat universiteti Gumanitar
fanlar va tillar fakulteti 2-bosqich talabasi*

Deb qoying Ona

Sevganim qayg'ular tomon boshlasa,
Do'stim deganlarim dushmanim bo'lsa.
Konglim oluvchilar konglim g'ashlasa,
Men doim sen bilan,deb qoying ona.

Ne demayin ishonishmas mening so'zimga,
Qizingiz holini bor koring ona.
Yomonsan deyishdi qarab ko'zimga,
Bolam yomon emas, deb qo'ying ona.

Bu foniy dunyoda bo'lsam gar sarson,
Insonlar zulmidan bo'lsam xam xayron.
Qo'llarim tutganda azobli armon,
Sen mening bolamsan, deb qo'ying ona.
Sen mening qizimsan,deb qoying ona...

Singilginam

Qay bag'ritosh yaraladi seni diling,
Topmadimi sodda deya nozik ko'ngling.
Hali hayot oldindadir porloq yo'ling,
Qo'y yig'lama mening sodda ko'ngilginam,
Bu kunlar ham o'tib ketar singilginam.

Hali seni tilla ayvon baxting kutar,
Seni sevgi vayron qilgan alam yutar.
Shoir opang madhing uchun qalam tutar,
Qo'y yig'lama mening sodda ko'ngilginam,
Bu kunlar ham o'tib ketar singilginam.

Yelkangda bil otajoning nomusi bor,

Qizlik g'urur onajoning qomusi or.
 Chimildiqda yangalaring aytsin yor-yor,
 Qo'y yig'lama mening sodda ko'ngilginam,
 Bu kunlar ham o'tib ketar singilginam.

Yoshlikdagi havasni sen sevgi bilma,
 O'tkinchi bir hislar uchun bag'ring tilma.
 Muhabbatim armonim deb afsus qilma,
 Qo'y yig'lama mening sodda ko'ngilginam,
 Bu kunlar ham o'tib ketar singilginam.

Sog'indim onajon yomon sogindim

Boshimdan oftoblar o'tib ketyapti,
 Oyog'im loylarga botib ketyapti.
 Kichkina toshlar xam botib ketyapti,
 Sog'indim onajon yomon sogindim.

Bilaman, ko'klardan qarab turibsiz,
 Bizlarni duolar qilib turibsiz.
 Jannat bo'ylarini hidlab turibsiz,
 Sog'indim onajon yomon sogindim.
 Dasturxonda sovub qolibdi oshim,
 Ko'zimdan to'kilib ketyapti yoshim.
 Sizga aytayin bu tahlil toshim,
 Sog'indim onajon yomon sogindim.

Qizg'onardim xatto shirin so'zimni,
 Mehr ila boqqan jayron ko'zimni.
 Bo'zlatib ketdi bosgan izini,
 Sog'indim onajon yomon sogindim.

Baqirib tashlabman kezi kelganda,
 Debman, erkalasa "yosh bolamanmi?".
 Bugun qo'msab qoldim yuragim toshib,
 Sog'indim onajon yomon sogindim.